



**OILAVIY MUHITDA BOLALAR NUTQIDAGI KAMCHILIKLARNI
ERTA ANIQLASH VA BARTARAF ETISH USULLARI**

Buzrukova Dilorom Mamirxonovna

Farg'ona davlat universiteti dotsenti

md.buzrukova@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0007-2780-9087>

Ismoilova Mohichehraxon Rasuljon qizi

Farg'ona davlat universiteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq kamchiliklarini oilaviy muhitda erta aniqlash va bartaraf etishning metodik asoslari yoritilgan. Maqolada ota-onalarning “logopedik kompetentligi” tushunchasi tizimli tahlil qilinib, oilaning nutqiy-tarbiyaviy salohiyatini aniqlashga qaratilgan anketashtirish, maqsadli suhbat va tizimli monitoring va kuzatish metodlari amaliy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, uy sharoitida mnemotexnika, didaktik o'yinlar va ertak terapiya kabi korreksion-pedagogik vositalardan foydalanish hamda ota-onalarning individual “Logopedik-pedagogik pasporti”ni shakllantirish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Oilaviy muhit, logopedik kompetentlik, erta tashxis, anketashtirish, maqsadli suhbat.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqidagi nuqsonlarni erta aniqlash va ularni muvaffaqiyatli bartaraf etish bevosita oilaviy muhitning pedagogik hamda nutqiy-tarbiyaviy salohiyatiga bog'liq. Bola shaxsining shakllanishi, uning dastlabki ijtimoiy moslashuvi va muloqot madaniyati poydevori aynan oilada qo'yiladi. Shu bois, korreksion-logopedik ishlarni tashkil etishdan avval oila a'zolarining logopedik kompetentlik darajasini va oilaning ichki imkoniyatlarini tizimli tashxis qilish talab etiladi.

Oila a'zolarining logopedik kompetentligi - bu ota-onalarning boladagi nutqiy nuqsonlarni vaqtida payqay olish, ularning kelib chiqish sabablarini to'g'ri anglash hamda logoped-mutaxassis bilan hamkorlikda uydagi nutqiy muhitni korreksion maqsadlarga muvofiqlashtira olish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar majmuasidir.

Tashxis jarayonining bosh maqsadi - oilaning nutqiy-tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash va ota-onalarning korreksion jarayonga bo'lgan



tayyorgarlik darajasini baholashdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilanadi:

1. Oilaning tuzilishi, ijtimoiy-psixologik iqlimi va bolaga bo'lgan munosabat turini (giperopeka, gipopeka, avtoritar, demokratik) aniqlash.
2. Ota-onalarning bolaning nutqiy rivojlanishi va mavjud nuqsonlarga nisbatan subyektiv munosabatini o'rganish.
3. Oiladagi nutqiy muhit (kattalar nutqining sur'ati, madaniyati, ikki tillilik yoki ko'p tillilik holatlari)ni baholash.
4. Ota-onalarning logopedik bilimlarga bo'lgan ehtiyoji va qiziqishlarini aniqlash.

Oila a'zolarining logopedik kompetentligini va oilaning tarbiyaviy imkoniyatlarini har tomonlama baholash uchun quyidagi metodlar majmuasidan foydalaniladi:

1. Anketashtirish va so'rovnoma metodi

Bu metod orqali qisqa vaqt ichida ota-onalardan bolaning anamnezi (rivojlanish tarixi) va oiladagi umumiy vaziyat haqida birlamchi ma'lumotlar yig'iladi. BMI amaliy qismi uchun maxsus ishlab chiqilgan so'rovnoma quyidagi bloklarni o'z ichiga oladi:

Tibbiy-biologik blok: Homiladorlik va tug'ruq jarayonining kechishi, bolaning ilk yoshdagi nutqiy rivojlanish bosqichlari (g'uldirash, guvillash, ilk so'zlar).

Pedagogik-psixologik blok: Ota-onaning fikricha, bolaning nutqi qachondan boshlab tengdoshlaridan ortda qola boshlagan yoki duduqlanish/kamchiliklar qachon paydo bo'lgan? Bunga oilada qanday munosabat bildirilgan?

2. Maqsadli suhbat metodi

Suhbat ota-ona bilan individual tarzda, erkin va ishonchli muhitda o'tkaziladi. Suhbat davomida anketa savollariga aniqlik kiritiladi. Asosiy e'tibor ota-onaning boladagi nuqsonga bo'lgan psixologik reaksiyasiga qaratiladi: ba'zi ota-onalar muammoni inkor etsa (anosognoziya), boshqalari haddan tashqari xavotirga tushadilar, bu esa boladagi nutqiy qo'rquvni (logofobiya) yanada kuchaytirishi mumkin.

3. Kuzatish metodi (Tizimli monitorig)

Logoped va tarbiyachining ota-ona hamda bolaning muloqotini bevosita kuzatishi. Kuzatuv bolani bog'chaga olib kelish/ketish jarayonida, ochiq mashg'ulotlarda yoki oilaviy uchrashuvlarda amalga oshiriladi. Bunda ota-onaning bola bilan muloqotga kirishish darajasi, undan qay darajada ravonlikni talab qilayotgani va nutqiy xatolariga qanday munosabatda bo'layotgani baholanadi.



Kattalarning bola bilan muloqotdagi ohangi, adabiy til me'yorlariga rioya qilishi, milliy nutq odobi elementlaridan foydalanishi, korreksion tayanch vositalaridan foydalanish, uy sharoitida mnemotexnika, didaktik o'yinlar, ertak terapiyadan foydalanish mahorati, taktik yondashuv va sabr-toqat, bola nutqida duduqlanish yoki to'xtalish yuz berganda ota-onaning o'zini tutishi, bolani sabr bilan tinglay olishi, bolaning muloqotga tayyorligini rag'batlantirish, bolaning savollariga to'g'ri javob berish, uning so'z boyligini oshirishga intilish kabi tizimli amaliy-metodik vositalar orqali yig'ilgan ma'lumotlar har bir duduqlanuvchi yoki nutqida kamchiligi bor bolaning oilasi bo'yicha individual "Logopedik-pedagogik passport"ni shakllantirish imkonini beradi. Diagnostika natijalari ota-onalarning zaif va kuchli tomonlarini ko'rsatib beradi. Masalan, kognitiv komponenti yuqori, lekin faoliyatli-texnologik komponenti sust bo'lgan ya'ni nazariyani biladigan, lekin amalda mashqlarni qila olmaydigan ota-onalar bilan ko'proq amaliy treninglar, mahorat darslari o'tkazish zarurligi aniqlanadi. Shu bois befarq ota-onalarda motivatsiyani uyg'otish va ularga bolaning kelajakdagi ijtimoiy moslashuvida nutqning o'rnini tushuntirish bo'yicha psixologik maslahatlar kursi rejalashtirilsa samarali natija beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ayupova M. Logopediya. – Toshkent: 2011.
2. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: 2021.
3. Mo'minova L. Logopediya. – Toshkent: 2013.
4. Nurkeldiyeva D. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirish metodikasi. – Toshkent: 2021.
5. Mo'minova L.R. Bolalar nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etish. – Toshkent: 1993.
6. Mo'minova L.R. Logopedik yordam ko'rsatish tizimida oila bilan ishlash uslubiyoti. – Toshkent, 2018.